

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAXMUDOVA AZIZAXON NOSIROVNA

**SULEYMANOV RUSTAM XAMIDOVICHNING O‘ZBEKISTONDA
TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASI VA ANTIK DAVRI MODDIY
MADANIYATI TARIXINI O‘RGANISHGA QO‘SHGAN HISSASI**

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Maxmudova Aziza Nosirovna

Suleymanov Rustam Xamidovichning O‘zbekistonda tosh davri arxeologiyasi va antik davri moddiy madaniyati tarixini o‘rganishga qo‘shgan hissasi..... 3

Махмудова Азиза Носировна

Вклад Рустама Хамидовича Сулейманова в изучение археологии каменного века и истории материальной культуры античного периода в Узбекистане .. 25

Makhmudova Azizakhon Nosirovna

The contribution of Rustam Khamidovitch Suleimanov to the study of archeology of the stone age and the history of material culture of the ancient period in Uzbekistan 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

MAXMUDOVA AZIZAXON NOSIROVNA

**SULEYMANOV RUSTAM XAMIDOVICHNING O‘ZBEKISTONDA
TOSH DAVRI ARXELOGIYASI VA ANTIK DAVRI MODDIY
MADANIYATI TARIXINI O‘RGANISHGA QO‘SHGAN HISSASI**

07.00.08 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Tar692 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Murodova Durdonaxon Xabibulloyevna
tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Hasanov Mutalib
tarix fanlari doktori, professor

Raxmonqulova Zumradxon Boyxo'rozovna
tarix fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil "06" 01 soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti, 2-qavat, majlislar zali. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz. Farg'ona davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (666 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. ARM binosi). (Tel.: (99873) 224-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "24" 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil "24" 12 daqi 53- raqamli reyestr bayonnomasi).



B.A.Usmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.f.d., professor

N.O.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.f.d., dotsent

M.G.Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv jaroyonlari barcha mintaqalarni qamrab olayotgan sharoitda ilm va fan taraqqiyoti omillarini tadqiq etishga qaratilgan izlanishlarning salmog‘i ortib bormoqda. Shuningdek, ilm-fanga katta hissa qo‘shgan yetuk olimlar va ularning ilmiy maktablari faoliyatini o‘rganishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Jumladan, yuksak salohiyati, ijod yo‘li bilan tanilgan olimlar faoliyatini tadqiq etish global ilmiy merosni anglash va uni yangi paradigmalarga integratsiya qilish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning ko‘plab ilmiy markazlari, tadqiqot institutlari va ta‘lim tashkilotlarida ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo‘shgan olimlar faoliyati tarixi keng o‘rganilmoqda. Ayniqsa, Fransiyaning Centre National de la Recherche Scientifique (CNRS) milliy ilmiy tadqiqotlar markazida, hamda Yaponiyaning Kyoto universitetida, shuningdek, Rossiya Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutida buyuk olimlarning ilmiy merosi o‘rganishda yetakchilik qiladi. Bugungi kunda ilm fan taraqqiyoti va unga hissa qo‘shgan olimlar faoliyatini chuqur o‘rganishga qaratilgan e‘tibor ko‘plab davlatlar siyosatida muhim yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilishi masalani yanada keng hamda tarixiy nuqtai nazardan tadqiq etish ehtiyojini vujudga keltirmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin dunyo sivilizatsiyasining rivojiga munosib hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz, ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qilgan taniqli olimlar va ularning ilmiy maktablari tarixini o‘rganishga katta e‘tibor qaratildi. Ayniqsa, bugungi kunda O‘zbekistonda ilm-fan va uning taraqqiyoti doir keng qamrovli islohotlar mamlakat rivojiga, bu boradagi tizimni yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Mamlakatda yuqori salohiyatga ega, jahon miqyosida e‘tirof etilgan olimlar ko‘p. Ular o‘z maktablarini yaratishi, shogirdlar tarbiyalashi lozim”¹. Ana shunday ma‘rifat fidoiylari, ilm ahli vakillari, olimlar faoliyatini tahlil etish va ularning fan rivojiga qo‘shgan hissasini aniqlash O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi munosib o‘rnini anglashga, yosh avlodni Vatan tarixini yanada chuqur idrok etishi, kelajakka mustahkam ishonch bilan qarashiga xizmat qiladi. Ayni jihatlar mazkur tadqiqotning tarixshunoslikning dolzarb vazifalaridan biriga bag‘ishlanganini ko‘rsatib beradi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 16-yanvardagi 5181-son “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi² Farmoyishi hamda qarorlarida belgilangan vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 13-dekabrdagi ilm-fan vakillari bilan uchrashuvida so‘zlagan nutqi // <https://share.google/2rEwQgubYWayOiN3C> Murojat qilingan sana:27.11.2025 r.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/5073447>; 2022-yil 6-iyuldagi PQ-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/6102462>; 2018-yil 16-yanvardagi F-5181-sonli “Moddiy-madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoyishi // <https://lex.uz/docs/3506332>; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentyabrdagi 792-sonli “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori // <https://lex.uz/docs/4524476>. Murojat qilingan sana:18.12.2025 r.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. R.X.Suleymanov faoliyati bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish orqali ushbu olimning arxeologiya faniga qo‘shgan hissasi va uning ilmiy merosini o‘rganilganlik darajasi aniqlandi. Unga ko‘ra, mavzuni o‘rganilishi yuzasidan ilmiy adabiyotlarni quyidagi ikkita guruhga ajratib, tahlil qilish mumkin. Birinchi guruhga Respublikada arxeologiya sohasining shakllanishi va rivojlanish tarixini o‘rganishga qaratilgan ilmiy ishlar kiradi. Ikkinchi guruhini esa R.X.Suleymanovning hayoti hamda ilmiy faoliyatiga bag‘ishlab, zamondoshlari va xorijlik olimlar tomonidan yozilgan maqola hamda tezislar tashkil qiladi.

Birinchi guruhga XX asrning 60-yillar o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda paleolit davrini o‘rganish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar sarhisobiga bag‘ishlangan tahliliy maqola va ilmiy ishlar mansubdir. Shuningdek, ushbu ilmiy ishlar bir necha o‘nlab ilmiy maqolalar hamda monografiyalarda paleolit davri o‘rganilgan, yoritib berilgan³. Shuningdek, ushbu ilmiy ishlardan tashqari 1965-yilgacha tosh davri arxeologiyasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar sarhisob qilingan ilmiy maqola va nomzodlik dissertatsiyasini ham alohida qayd etish kerak. Ularga V.A.Shishkin⁴, A.R.Muxamedjanov⁵ va V.A.Ranovning tahliliy maqolalari⁶, M.Djuraqulovning nomzodlik dissertatsiyasi⁷

³ Исламов У. Открытие неолитической культуры на Махандарье // *Общественные науки Узбекистане (Keyingi o‘rinlarda O‘NU)*. – 1961. – №1. – С. 61–62; Гулямов Я.Г. По следам древней культуры. – Ташкент: АН УзССР, 1960. – 35 с.; Лев Д.Н. Археологические исследования Самаркандского государственного университета в 1955–1956 гг / *Труды Самаркандского государственного университета им. Алишера Навои. Новая серия. Вып. 101. История (Материалы по истории народов Узбекистана). Часть вторая.* – Самарканд, 1960. – С. 3–22; О‘sha muallif: Стоянка древнего человека [в Самарканде]. – М.: Природа, 1960. – №8. – С. 77–78; О‘sha muallif: Раскопки Самаркандском палеолитической стоянки в 1959-1960 гг // *МТОНКС. Серия гуманитарных и естественных наук.* – Самарканд, 1961. – С. 108–110; Касымов М.Р. Новое палеолитическое местонахождение близ селения Бричмулла / *ИАН СОН УзССР.* – Ташкент, 1960. – №3. – С. 51–52; О‘sha muallif: Кремневая мастерская близ кишлака Иджонт // *О‘NU.* – 1961. – №8. – С. 62–63; О‘sha muallif: Добыча и техника обработки кремня в каменоломнях мастерских Средней Азии. НРС. – Ташкент, 1961. – С. 253–264; Касымов М.Р., Коробкова Г.А. Функциональное определение каменных орудий с Кзылкырской неолитической стоянки // *О‘NU.* – 1962. – №10. – С. 62–66; – №3. – С. 272–276; Насреддинов К. Неолитические находки в местности Кзылкыр / *Научные работы и сообщения.* – Ташкент, 1960. – С. 92–94; О‘sha muallif: Ходжикентская пещера №2 – мустьерский памятник близ Ташкента // *О‘NU.* – 1962. – № 4. – С. 63–67; Трофимова Т.А. Основные итоги и задачи палеоантропологического изучения Средней Азии // *Советская этнография.* – 1960. – № 2 С. 110–122; Исламов О.И., Рутковская Л.М. Каменные орудия из Чаш-Тепе под Ташкентом // *СА.* – 1961. – №2. – С. 110–122; Исламов У.И. Кельтеминарская культура на Махандарье. – Ташкент, 1961. – С. 258–271; Окладников А.П. Ходжикентская пещера новый мустьерски памятник в Узбекистане / *КСИА.* – М., 1961. – С. 68–76; Окладников А.П., Исламов О.И. Палеолитические находки в урочище Шуралисай (Бозсу-2) // *ИМКУ.* – Ташкент, 1961. – С. 51–60; Окладников А.П., Леонов Н.И. Первые находки каменного века в Фергане / *КСИА.* – М., 1961. – С. 36–42; Парфенов Г.В. Следы древних культур на городище Айртам // *ИМКУ.* – Ташкент, 1961. – № 2 – С. 61–71; Исламов У. Раскопки неолитического памятника на Махандарье // *О‘NU.* – 1962. – № 2. – С. 66–67.

⁴ Шишкин В.А. Узбекская археологическая экспедиция АН УзССР. (Полевые работы 1956–1959 гг.) // *ИМКУ.* – 1961. – С. 18–25.

⁵ Мухамеджанов А.Р. Развитие археологической науки в Узбекистане в годы Советской власти // *СА.* – 1967. – №4. – С. 93–103.

⁶ Ранов В.А. Изучение каменного века Средней Азии за двадцать лет (1945–1965) / *Сборник материальная культура Таджикистана.* – Сталинабад, 1968. – Выпуск 1. – С. 5–44.

⁷ Джуракулов М. История изучения каменного века Средней Азии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Самарканд, 1966. – 28 с.

hamda D.M.Jo‘raqulova⁸, S.T.Mirsoatovning monografiyasini⁹ misol qilib keltirish mumkin. Ayni paytda soha rivoji jumladan, tosh davri arxeologiyasidagi o‘zgarishlar keyingi davr tadqiqotchilarining ham e‘tibor markazida bo‘lgan¹⁰. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, R.X.Suleymanovning sohaga kirib kelishi va dastlabki faoliyati davrini solishtirishda ushbu manbalar katta ilmiy qiymatga ega.

Ikkinchi guruhga mansub ilmiy ishlar bevosita R.X.Suleymanovning ilmiy va hayotiy faoliyatiga bag‘ishlangan va olimning yubiley sanalari munosabati bilan chop etilgan maqola va tezislar ko‘rinishida bo‘lib, ularning aksariyatida olim faoliyati haqida umumiy yoki qisqacha ma’lumotlar berilganligini ko‘rish mumkin. Ular orasida R.X.Suleymanovning 60, 80 va 85 yillik yubiley sanalari munosabati bilan chiqarilgan to‘plamlarni¹¹ alohida ta’kidlash joiz sanaladi.

Yuqorida nomlari keltirilgan maqola va tezislar asosan, xotira va esdaliklar tarzida yozilgan bo‘lsa-da, aksariyat hollarda ular muhim ma’lumotlarni bera oladi. Lekin, Rustam Xamidovich Suleymanovning tarix va arxeologiya fani taraqqiyotida tutgan o‘rni, boy tarixiy merosni o‘rganish hamda muhofaza qilishdagi xizmatlari hanuzgacha alohida mavzu sifatida o‘rganilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF–6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni asosida tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tarix fanlari doktori, professor Rustam Xamidovich Suleymanovning O‘zbekistonda tarix va arxeologiya fanlari taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, arxeologik hamda moddiy madaniyat yodgorliklarini o‘rganish, himoya qilishi va Respublikada kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirgan ishlarini yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. XX asrning 30-60-yillarida O‘zbekistonda tarix va arxeologiya fanlari erishgan yutuq hamda muammolar, R.X.Suleymanovning tarixchi-arxeolog sifatida shakllanishini yoritib berish;

⁸ Жўракулова Д. М. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда палеолит даврининг ўрганилиши. – Тошкент, 2019. – 240 с.

⁹ Мирсоатова С.Т. Ўзбекистоннинг тош даври археологияси ва антропогенези масалалари. – Фарғона, 2017. – 141 б.

¹⁰ Аскарлов А.А. Успехи археологов Узбекистана в изучении каменного века // ИМКУ. – Ташкент, 1974. – С. 9–14; Ширинов Т.Ш., Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х. Ўзбекистонда археология фанининг ривожланиши тарихидан // Ўзбекистон археологияси (keying o‘rinlarda – ЎА). – 2010. – №1. – Б. 4–15; Жўракулов М.Ж. Самарқанд воҳасининг ибтидий маданияти тарихи саҳифаси // ЎА. – 2011. – №1 (2). – Б. 5–24; Джуракулова Д.М., Мирсоатова С.Т., Умаров А. Ш. Успехи изучения палеолита Узбекистана за годы независимости // Археология Узбекистана. – 2018. – №2 (17). – С. 9–62.

¹¹ Сўғд – Марказий Осиё маданий алоқалари тизимида / Тарих фанлари доктори Р.Х. Сулейманов таваллудининг 60 йиллигига бағишланган конференция тўплами материаллари. – Самарқанд, 1999. – 52 б.; История и археология Турана / Посвященный юбилею Р. Х. Сулейманова. – Самарқанд, 2020. – 480 с.; Markaziy Osiyo madaniyati tarixi va tarixshunosligi masalalari / R. X. Suleymanov tavalludining 80 yillik yubileyiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2019; O‘rta Osiyo moddiy madaniyati tarixi / Tarix fanlari doktori R. X. Suleymanov tavalludining 85 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami materiallari. – Toshkent, 2024. – 213 b.; Markaziy Osiyo madaniyati tarixi va tarixshunosligi masalalari / O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, tarix fanlari doktori, professor Rustam Xamidovich Suleymanovning 85yillik yubileyiga ba‘g‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – 593 с.

-Rustam Xamidovich Suleymanovning ilmiy faoliyatida ustozlarining o'rnini, Mohandaryo, Obirahmat va Naxshab arxeologik ekspeditsiyasidagi ishtirokini ochib berish;

-O'zbekiston hududidagi paleolit davri madaniyati tarixini o'rganishga doir R.X.Suleymanovning ilmiy tadqiqotlarini xronologik izchilikda tahlil qilish;

-Naxshab arxeologik ekspeditsiyasida Rustam Suleymanovning tashkilotchilik va rahbarlik faoliyati hamda arxeolog kadrlar tayyorlash sohasidagi faoliyatini ochib berish;

-moddiy-ma'naviy yodgorliklarini saqlash, targ'ib qilishda R.X.Suleymanovning qo'shgan hissasi va u bilan bog'liq muammolarni yoritib berish;

-arxiv hujjatlarini tasniflash va tahliliy o'rganish orqali R.X.Suleymanov ilmiy faoliyatini tahlil qilish;

-R.X.Suleymanovning ilmiy bibliografiyasini yaratish;

-tadqiqot natijalari asosida yakuniy xulosalar chiqarish hamda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini R.X.Suleymanovning ilmiy va ijtimoiy-tashkiliy faoliyati tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida Rustan Xamidovich Suleymanovning O'zbekistonda XX – XXI asrlarda tarix, arxeologiya kabi ijtimoiy fan sohasi rivojiga qo'shgan hissasi, arxeologik yodgorliklarni saqlash va targ'ib qilishdagi xizmatlari, tarixchi-arxeolog kadrlar yetishtirishdagi o'rnini ilmiy asoslash tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik, xolislik tamoyili va tizimlashtirish, xronologik, og'zaki tarix, kompleks tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Rustan Xamidovich Suleymanov uzoq yillik ilmiy va pedagogik faoliyati davomida o'z tadqiqot uslublari hamda yo'nalishlariga ega bo'lgan tosh davri arxeologiyasining o'ziga xos ilmiy maktabiga asos solgan. Ushbu ilmiy maktab bugungi kunda Respublika ilm-fani hamda ta'lim-tarbiya jarayonlari taraqqiyotida o'zining salmoqli o'rniga ega ekanligi faktik materiallar asosida dalillangan;

R.X.Suleymanov Obirahmat tosh industriyasini o'rganishda tipologik va funksiyaviy tahlil, stratigrafik hamda texnologik uslublar qatorida yangi matematik-statistikani qo'llashi, O'zbekistondagi paleolit industriyalarini o'rganishning yangi bosqichga olib chiqqani isbotlangan;

R.X.Suleymanov tomonidan ilk bor Obirahmat madaniyati asosida O'zbekistonda arxeologiya fanini o'rganishda "O'rta Osiyo paleolit provinsiyasi" tushunchasining kiritilgani isbotlangan;

olim tomonidan G'arbiy va Janubiy So'g'dning madaniy mustaqilligi hamda o'ziga xos rivojlanish dinamikasi, shuningdek, Naxshab-Qarshi vohasi qadimgi Janubiy So'g'dning yirik madaniy markazi bo'lganligini asoslab berganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari, ilmiy asarlar hamda zamondosh olimlar xotiralarini tahlil qilish orqali Rustan Xamidovich Suleymanovning arxeologiya va tarix fanini o'rganishga qo'shgan hissasi hamda ilmiy maktabini shakllantirishdagi o'rniga aniqlik kiritilgan;

tadqiqotning ilmiy natijalaridan ko'p jildli "O'zbekiston tarixi"ni yozish, arxeologiya sohasi tarixiga bag'ishlangan kitoblar, o'quv qo'llanma va darsliklar

yaratish, barcha oliy o‘quv yurtlari hamda malaka oshirish kurslarida seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiya ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlar uchun ta‘lim jarayonlarini yangi ma‘lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, “Arxeologiya” fanining o‘quv materiallarini yangi ma‘lumotlar bilan to‘ldirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida tarix fanida qo‘llanilayotgan zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, qo‘yilgan masalalar O‘zR FA Asosiy kutubxonasi va Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi fondlari, O‘zR FA Arxeologiya instituti arxiv fondlari va R.X.Suleymanovning shaxsiy arxiv fondlari, uning yubileyiga bag‘ishlab yozilgan ilmiy va ommabop nashrlar, zamondoshlarining og‘zaki ma‘lumotlaridan foydalanilganligi, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati R.X.Suleymanov faoliyati borasidagi olib borilgan izlanish natijalaridan O‘zbekistonda “Arxeologiya” fanining taraqqiyoti, tosh davri muammolari, moddiy madaniyat va arxeologik yodgorliklarni o‘rganishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olimning arxeologiya va pedagogik faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, ilmiy xulosalar maktab, litsey, oliy o‘quv yurtlari uchun yangi avlod o‘quv adabiyotlar yaratishda xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. R.X.Suleymanov va uning “O‘zbekiston tarixi” hamda “Arxeologiya” fanlari taraqqiyotidagi o‘rni mavzusini o‘rganish davomida ishlab chiqilgan xulosa va takliflardan:

R.X.Suleymanov uzoq yillik ilmiy va pedagogik faoliyati davomida o‘z tadqiqot uslublari hamda yo‘nalishlariga ega bo‘lgan tosh davri arxeologiyasining o‘ziga xos ilmiy maktabiga asos solgan. Ushbu ilmiy maktab bugungi kunda Respublika ilm-fani hamda ta‘lim-tarbiya jarayonlari taraqqiyotida o‘zining salmoqli o‘rniga ega ekanligi faktik materiallar asosida dalillanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalidagi “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 28-oktyabrdagi 01-44-360-son ma‘lumotnoma). Natijada, teletomoshabinlarning R.X.Suleymanovning ilmiy va pedagogik faoliyatiga doir bilim va tassavurlarini yanada boyitilishiga hamda ko‘plab ma‘lumotlarga ega bo‘lishiga imkon bergan;

R.X.Suleymanov Obirahmat tosh industriasini o‘rganishda tipologik va funksiyaviy tahlil, stratigrafik hamda texnologik uslublar qatorida yangi matematik-statistikani qo‘llashi, O‘zbekistondagi paleolit industriasini o‘rganishning yangi bosqichga olib chiqqani isbotlanganligiga doir ma‘lumotlardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 28-oktyabrdagi 01-44-360-son ma‘lumotnomasi). Taqdimot ko‘rsatuvi fondini Vatanimiz va arxeologiya tarixiga doir yangi ma‘lumotlar bilan boyitishga xizmat qilgan;

R.X.Suleymanov tomonidan ilk bor Obirahmat madaniyati asosida O‘zbekistonda arxeologiya fanini o‘rganishda “O‘rta Osiyo paleolit provinsiyasi” tushunchasining kiritilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazish chog‘ida

keng foydalanilgan. (Respublika “Ma’naviyat va Ma’rifat markazi” huzuridagi ijtimoiy-manaviy tadqiqotlar instituti tomonidan 2025-yil 10-yanvarda berilgan 10/7-son ma’lumotnomasi). Natijada, Yangi O‘zbekiston bunyodkori bo‘lgan yoshlarda milliy g‘urur, ilm-fan sohasiga qiziqishlarini ortishiga xizmat qilgan;

olim tomonidan G‘arbiy va Janubiy So‘g‘dning madaniy mustaqilligi va o‘ziga xos rivojlanish dinamikasi, shuningdek, Naxshab-Qarshi vohasi qadimgi Janubiy So‘g‘dning yirik madaniy markazi bo‘lganligini asoslab berganligining aniqlanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan muzey ekspozitsiyalari ma’lumotlarini boyitish hamda ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazishda keng foydalanilgan (Respublika “Ma’naviyat va Ma’rifat markazi” huzuridagi ijtimoiy-manaviy tadqiqotlar instituti tomonidan 2025-yil 10-yanvarda berilgan 10/7-son ma’lumotnoma). Natijada, yosh avlod R.X.Suleymanovning moddiy-madaniy merosni saqlash va targ‘ib etishdagi faoliyatiga oid yangi ma’lumotlarni olishi hamda tarixiy tafakkurlarini yanada ortib borishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, shu jumladan, 5 xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan. Ulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta, jumladan, 5 tasi Respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati, shartli qisqartmalar hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 122 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismda tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**R.X.Suleymanovning O‘zbekiston tosh davri madaniyatini o‘rganishga qo‘shgan hissasi**” deb nomlangan birinchi bobi dastlabki paragrafi “O‘zbekistonda XX asrning 60-yillariga qadar tosh davrining o‘rganilishi” deb nomlanadi. Unda O‘zbekistonda arxeologiya sohasining rivojlanish tarixi va bu borada tizimli tadqiqotlarning yo‘lga qo‘yilishi muammosi tahlil qilingan. Unda Respublikada arxeologiya sohasining XX asrning 30-yillargacha bo‘lgan davrdagi holati, mazkur davrdan to XX asrning 60-yillar o‘rtalarigacha bo‘lgan paytda tadqiqot ishlarining sekin-asta rivojlanib borishi, uning bosqichlari, ilmiy ekspeditsiyalarning tashkil etilishidagi yutuq hamda muammolar tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda arxeologlar tomonidan XX asrning 30-yillarda olib borilgan izlanishlar natijasida paleolitshunoslik (tosh davri) sohasidagi tizimli o‘rganish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. XX asrning 60-yillardan keyingi tadqiqotlar sohada keskin

o'zgarishlarni boshlab bergan. Izlanishlarning shakllanishi hamda rivojlanib borishini XX asrning 60-yillari o'rtalarigacha bo'lgan davrda amalga oshirilgan ishlar sarhisobiga bag'ishlangan tahliliy maqola va ilmiy ishlarda ham ko'rish mumkin. Ushbu davrgacha bo'lgan vaqtda chop etilgan va paleolit davrini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar o'nlab maqolalar va monografiyalarda yoritib berilgan¹². Shuningdek, ushbu ilmiy tadqiqotlardan tashqari, 1965-yilgacha tosh davri arxeologiyasida qo'lga kiritilgan yutuqlardan V.A.Shishkin¹³, A.R.Muxamedjanov¹⁴, V.A.Ranovning tahliliy maqolalari¹⁵ va M.Djuraqulovning nomzodlik dissertatsiyasi¹⁶ hamda D.M.Jo'raqulova¹⁷ va S.T.Mirsoatovaning monografiyasini¹⁸ misol qilib keltirish mumkin. Ayni paytda arxeologiya sohasi rivoji, jumladan, tosh davri arxeologiyasidagi o'zgarishlar keyingi davr tadqiqotchilarining ham e'tibor markazida bo'lgan¹⁹. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, tosh davri arxeologiyasining shakllanishi va rivojlanishi holatini o'rganishda mazkur ilmiy tadqiqot ishlarining ahamiyati juda muhim sanaladi.

O'zbekiston hududida XX asrning 60-yillar o'rtalarigacha bo'lgan vaqtda paleolit davri arxeologiyasini shakllanishi va tadqiqot ishlarining rivojlanishi tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Jumladan, XX asrning 30-yillargacha bo'lgan davrda O'zbekiston hududida paleolit davri yodgorliklari haqida ma'lumotlar juda kam

¹² Исламов У. Открытие неолитической культуры на Махандарье // ОНУ. – 1961. – №1. – С. 61–62; Гулямов Я.Г. По следам древней культуры. – Ташкент: АН УзССР, 1960. – 35 с.; Лев Д. Н. Археологические исследования Самаркандского государственного университета в 1955–1956 гг / Труды Самаркандского государственного университета им. Алишера Навои. Новая серия. Вып. 101. История... – С. 3–22; Лев Д.Н. Стоянка древнего человека... – С. 77–78; Касымов М.Р. Новое палеолитическое местонахождение близ селения Бричмулла... – С. 51–52; O'sha muallif: Раскопки Самаркандском палеолитической стоянки в 1959–1960 гг... – С. 108–110; Касымов М.Р., Коробкова Г.А. Функциональное определение каменных орудий с Кзылкырской неолитической стоянки // ОНУ. – 1962. – №10. – С. 62–66; – №3. – С. 272–276; Насреддинов К. Неолитические находки в местности Кзылкыр / Научные работы и сообщения. – Ташкент, 1960. – С. 92–94; O'sha muallif: Ходжикентская пещера №2... – С. 63–67; Пиотровский Б.Б. Успехи советской археологии в изучении древнейшей истории Закавказья и Средней Азии. – М., 1960. – С. 42–56; Семенов Ю.И. О месте «классических» неандертальцев в человеческой эволюции / Вопросы антропологии. – М., 1960. – С. 46–65; Трофимова Т.А. Основные итоги и задачи палеоантропологического изучения Средней Азии // СЭ. – 1960. – № 2 – С. 110–122; Касымов М.Р. Кремневая мастерская близ кишлака Иджонт... – С. 62–63; O'sha muallif: Добыча и техника обработки кремня в каменоломнях мастерских Средней Азии. НРС. – Ташкент, 1961. – С. 253–264; Исламов О.И., Рутковская Л.М. Каменные орудия из Чаш-Тепе под Ташкентом... – С. 110–122; Исламов У.И. Кельтеминарсая культура на Махандарье... – С. 258–271; Окладников А.П. Ходжикентская пещера новый мустьерски памятник в Узбекистане... – С. 68–76; Окладников А.П., Исламов О.И. Палеолитические находки в урочище Шуралисай (Бозсу-2) // ИМКУ. – Ташкент, 1961. – С. 51–60; Окладников А.П., Леонов Н.И. Первые находки каменного века в Фергане / КСИА. – М., 1961. – С. 36–42; Исламов У. Раскопки неолитического памятника на Махандарье // ОНУ. – 1962. – № 2. – С. 66–67; Парфенов Г.В. Следы древних культур на городище Айртам // ИМКУ. – Ташкент, 1961. – № 2 – С. 61–71.

¹³ Шишкин В.А. Узбекская археологическая экспедиция АН УзССР. Полевые работы 1956–1959 гг. // ИМКУ. – Ташкент, 1961. – № 2 – С. 18–50; Шишкин В.А. Сорок лет советской археологии в Узбекистане (1924–1964) // ИМКУ. – Ташкент, 1966. – № 7 – С. 5–18.

¹⁴ Мухамеджанов А.Р. Развитие археологической науки в Узбекистане в годы Советской власти // СА. – 1967. – №4. – С. 93–103.

¹⁵ Ранов В.А. Изучение каменного века Средней Азии за двадцать лет (1945–1965) / Материальная культура Таджикистана. Выпуск 1. – Душанбе, 1968. – С. 5–45.

¹⁶ Джуракулов М. История изучения каменного века Средней Азии. Авт. дисс. на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Самарканд, 1966. – 28 с.

¹⁷ Жўракулова Д.М. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда палеолит даврининг ўрганилиши. – Ташкент, 2019. – 240 с.

¹⁸ Мирсоатова С.Т. Ўзбекистоннинг тош даври археологияси ва антропогенези масалалари. – Фарғона, 2017. – 141 б.

¹⁹ Аскарлов А.А. Успехи археологов Узбекистана в изучении каменного века // ИМКУ. – Ташкент, 1974. – №? – С. 9–14; Ширинов Т.Ш., Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х. Ўзбекистонда археология фанининг ривожланиши тарихидан // ЎА. – 2010. – №1. – Б. 4–15; Жўракулов М.Ж. Самарқанд воҳасининг ибтидоий маданияти тарихи саҳифаси // ЎА. – 2011. – №1 (2) – Б. 5–24; Джуракулова Д.М., Мирсоатова С.Т., Умаров А.Ш. Успехи изучения палеолита Узбекистана за годы независимости // АУ. – 2018. – №2 (17) – С. 9–62.

bo'lib, ular tasodifiy topilmalar haqidagi qaydlardan iborat edi. Shuningdek, dastlabki amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari topilma joylarni qayd etish va ulardan olingan kolleksiyalarni to'plashdangina iborat bo'lib, tadqiqotlar ilmiy hamda nazariy jihatdan asoslanmagan. Shu o'rinda aytish mumkinki, faqat XX asrning 30-yillar ikkinchi yarmidan tashkil etilgan arxeologik ekspeditsiyalar natijasida dastlabki kompleks tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin xalq xo'jaligini qayta tiklashga qaratilgan ishlar natijasida arxeologik tadqiqotlar ko'lami ancha kengaydi. Natijada, sohada mutaxassis kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi.

XX asr 30-yillarining ikkinchi yarmi – 60-yillarning boshlaridagi tadqiqotlar paleolit davri yodgorliklarini o'rganishning shakllanish davrini boshlab berdi. Aynan 1965-yillargacha bo'lgan davrda O'zbekiston hududida paleolit davri yodgorliklarining ma'lum bir geografik mintaqalarda yoyilishi bilan bog'liq holdagi dastlabki tasavvurlar yuzaga kelgan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi “R.X.Suleymanovning sohaga kirib kelishi va Obirahmat g'orining tadqiq qilinishi” deb nomlanadi. Rustam Xamidovich Suleymanov 1939-yil 30-mayda Toshkent shahrida, ziyoli oilasida tug'ilgan. Adabiyotshunos olim Hamid Sulaymonov hamda Fozila Sulaymonova oilasidagi ilm-fan va tadqiqotchilikka yo'naltirilgan muhit R.X.Suleymanovni yoshligidan ilmga bo'lgan qiziqishi uchun zamin yaratgan. U 1957-yilda o'rta maktabni tamomlab, Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'z MU)ning arxeologiya bo'limiga o'qishga kiradi. Talabalik yillarida V.M.Masson boshchiligidagi arxeologiya kafedrasida ko'plab soha mutaxassislaridan ma'ruzalar tinglagan. 1962-yilda universitetni tamomlab, o'z mehnat faoliyatini O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutida boshlagan.

R.X.Suleymanov ilmiy faoliyatining ilk davridayoq o'sha paytda taniqli arxeologlar Ya.G'.G'ulomov, A.P.Okladnikov va M.M.Gerasimovlar bilan ishlashga muvassar bo'lgan. Uning tadqiqotchi sifatida shakllanishiga ushbu olimlar bilan birgalikdagi faoliyati katta ta'sir ko'rsatgan.

Uning arxeolog olim sifatida shakllanishida uning ko'plab arxeologik ekspeditsiyalarda ishtirok etishi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Uning dastlabki arxeologik dala tadqiqotlaridagi faoliyati Ya.G'.G'ulomov boshchiligidagi ekspeditsiyalar bilan bog'liq bo'lgan. U birinchi marta M.Ye.Masson qo'l ostida “Arxeologiya” kafedrasida soha asoslari bilan tanishgan va Ya.G'.G'ulomov rahbarligidagi Mohandaryo ekspeditsiyasining dala tadqiqotlarida qatnashgan. Bo'lajak olimning ilmiy tadqiqotchilik yo'nalishini tanlashida mashhur arxeolog va antropolog olim M.M.Gerasimov bilan uchrashuv va birgalikdagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etgan. Aspiranturada o'qishning ilk davridayoq R.X.Suleymanov M.M.Gerasimovning nazariga tushgan edi.

O'rta Osiyo tosh davri yodgorliklarini o'rganishda yangicha qarashlar va tizimli tadqiqotlarni yuqori bosqichga ko'tarilishiga sababchi bo'lgan. Hamda olimning paleolit davri tarixini o'rganishdagi faoliyatining ilk davrida Obirahmat yodgorligi (1962-yil) o'rganila boshlangan. Rustam Xamidovich Suleymanov Obirahmat manzilgohida 1964-yildan mustaqil ravishda qazish ishlarini boshlaydi. Uning rahbarligidagi tadqiqotlar 1964–1965- hamda 1968–1969-yillarda amalga oshirildi²⁰. Obirahmat g'orida

²⁰ Сулейманов Р.Х. Грот Оби-Рахмат и проблемы палеолита Центральной Азии // Археология Узбекистана. 2010. – № 1. – С. 26–30.

R.X.Suleymanov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar uning bir nechta ilmiy maqolalari, nomzodlik dissertatsiyasi va monografiyasida o‘z aksini topgan²¹.

Amalga oshirilgan qazish ishlarida asosiy e‘tibor madaniy qatlamlarni o‘rganishga qaratildi. R.X.Suleymanov arxeologik dala tadqiqot ishlarini olib borishda qazish metodikasi va topilmalarni madaniy qatlamlar bo‘yicha tahlil qilish sohasidagi tadqiqotchilik ishiga katta hissa qo‘shdi. Obirahmat yodgorligini o‘rganish jarayonida arxeologik qazish metodikasini qo‘llash borasida ilmiy rahbari M.M.Gerasimov oldida o‘z qarashlarini asoslashga urinib ko‘rdi va taniqli olim bilan bahslarda qat’iy himoya qilgan.

1968-yilda R.X.Suleymanov O‘zbekiston SSR FA Tarix va arxeologiya institutida “Obirahmat g‘ori va Obirahmat madaniyatini o‘rganishda matematik-statistik tahlil usuli” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Unda Obirahmat g‘or-makoni topilmalari asosida O‘rta Osiyo tosh davri madaniyati va tarixi keng ko‘lamda yoritib berildi. Tadqiqot ishi davomida paleolit davri yodgorliklarini o‘rganish ko‘lamining kengayishi barobarida tosh qurollar yasash texnikasi va ularning tipologiyasiga oid bilimlar ham takomillashdi. Obirahmat g‘ori va uning kolleksiyasi asosida ilgari surilgan ilmiy xulosalar nafaqat O‘zbekiston, balki butun O‘rta Osiyo paleolit davri tadqiqotlarida keskin burilish yasagan tadqiqotlarga sabab bo‘ldi.

Obirahmat yodgorligi tosh kolleksiyasi asosida amalga oshirilgan tadqiqot hamda ilgari surilgan ilmiy xulosalar ahamiyatini R.X.Suleymanovning 1972-yilda nashr etilgan “Статистический изучение грота Обирахмат” monografiyasiga P.I.Boriskovskiy tomonidan bildirilgan fikr va e‘tirofda ham ko‘rish mumkin. U “..... Fransuz paleolitchi-arxeologlari ishlari tufayli biz tosh davri moddiy madaniyati va davrlashtirishi borasida yaxshi uslubiy qo‘llanmaga ega edik. Bizning sovet hamkasblarimiz doim unga amal qilgan va ushbu metodikadan foydalanishgan. Lekin, Rustam Xamidovich Suleymanovning kitobi chop etilgach, sovet arxeologiyasi fani fransuz arxeologlarini o‘n yilga ortda qoldirib ketdi”, - deb ta’kidlaydi²².

Olimning ajoyib sezgi hissi va g‘oyalarning odatiy doirasidan tashqariga chiqib, mintaqaviy keng fikrlash qobiliyatiga ega ekanligi ushbu tadqiqot ishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu xususiyat tadqiqotchiga Obirahmat madaniyatini davriy va geografik jihatdan keng doirada taqqoslash imkonini berdi. Kolleksiya texnik-tipologik belgilariga qarab R.X.Suleymanov Obirahmat industriyasi must‘edan so‘nggi paleolit davriga o‘tish bosqichi texnikasini namoyon qilganligini ta’kidlaydi²³. Olimning xulosalariga ko‘ra, Obirahmat madaniyati Yaqin Sharqdan Markaziy Osiyogacha bo‘lgan ulkan hududda yoyilgan va toshga ishlov berish texnikasi plastinkalar olishga yo‘naltirilgan industriyalar doirasiga kirgan.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 60-yillarida O‘zbekistonda tosh davriga oid bir qator arxeologik yodgorliklar topilgan bo‘lsa-da, ulardan to‘liqroq o‘rganilganlari 10 taga ham yetmas edi. Qolganlari tosh davri madaniyati va taraqqiyotini aniqlashga

²¹ Сулейманов Р.Х. Об одном техническом приеме изготовления палеолитических орудий // ОНУ. – 1966. – №11. – С. 36–37; О‘sha muallif: Характер развития одной из локальных ветвей эволюции каменной индустрии // ИМКУ. – 1966. – №7. – С. 19–27; Сулейманов Р.Х., Мирсаатов Т.М. О показателе 1/m – как критерии отличия нижнепалеолитической техники расщепления кремния от верхнепалеолитической // ИМКУ. – 1969. – №8. – С. 16–20; Сулейманов Р.Х. К методике классификации палеолитических индустрий // ИМКУ. – 1974. – №11. – С. 22–28.

²² Исамиддинов М. Знаток первобытной и античной археологии Центральной Азии / История и археология Турана. Посвященный юбилею Рустама Хамидовича Сулейманова. – Самарканд, 2020. – №5. – С. 12.

²³ Сулейманов Р.Х. Статистическое изучение грота Обирахмат. – Ташкент, 1972. – 171 с.

yordam beradigan qo‘shimcha, ammo tahlilga muxtoj, hali yaxshi asoslanmagan ma’lumotlar bilan cheklangan. Ushbu vaqtda O‘zbekistonda o‘rganilgan birorta ham yodgorlik tosh davri madaniyatlarining davriy izchil rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatib bera olmagan edi. Yodgorliklarning mutlaq yoshini aniqlash imkoniyati ham cheklangan edi. R.X.Suleymanov esa XX asrning 60-yillarda aynan mana shunday holatda O‘rta Osiyo ibtidoiy davr tarixini o‘rganishning birlamchi vazifasi ma’lumotlarni oddiy bayon qilishdan chuqur ilmiy o‘rganishga va tahlilga o‘tishda ekanligini ko‘ra olgandi.

R.X.Suleymanovning ilmiy faoliyati yutuqlaridan biri arxeologiya maktablari hamda ustozlar bilim va tajribasini o‘rganishdan tashqari, yangicha qarash va yondashuvlarni shakllantirishni maqsad qilgan holda ilmiy tadqiqotchilik usullarni o‘zi ishlab chiqqanligida edi.

R.X.Suleymanov tosh davri artefaktlarini tipologik tasniflashda texnologik yondashuvga tayangan va qo‘lga kiritgan natijalarni matematik-statistik tahlil yordamida asoslashga qaratilgan o‘zining maxsus tadqiqot uslublarini ishlab chiqdi. O‘z davrining yetuk arxeolog mutaxassislari va turli ilmiy maktablardan olgan bilimlari R.X.Suleymanovga o‘z ilmiy farazlari hamda dala qazish usullarini ishlab chiqishga qodir arxeolog sifatida shakllanishiga xizmat qildi.

Dissertatsiyaning birinchi bob uchinchi paragrafi “1970–2023-yillar davomida R.X.Suleymanov tomonidan tosh davri yodgorliklarining o‘rganilishi” deb nomlangan. Ushbu paragraf Rustam Xamidovich Suleymanovning XX asrning 70-yillardan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrdagi tosh davrini o‘rganishdagi ilmiy faoliyati tahliliga bag‘ishlangan.

1970-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi qoshida Arxeologiya institutining tashkil etilishi bilan R.X.Suleymanov dastlab Afrosiyob muzeyida bo‘lim boshlig‘i lavozimida ish boshladi. Keyinchalik 1999-yilgacha “Antik arxeologiya bo‘limi”, so‘ng “Kesh va Naxshab arxeologiyasi bo‘limi” boshlig‘i, institut direktori va ilmiy xodim lavozimlarida faoliyat olib bordi. Mazkur yillarda uning ilmiy faoliyati asosan Qadimgi So‘g‘dning antik va ilk o‘rta asrlar arxeologiyasini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, Buxoro hududida Setalak hamda Qashqadaryo vohasida Yerqo‘rg‘on shahar xarobalarini o‘rganishdan iborat bo‘lgan²⁴.

Lekin, tosh davrini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish R.X.Suleymanovni butun tadqiqotchilik ilmiy faoliyati davomida tark etmadi. U antik va ilk o‘rta asrlar tarixini o‘rganish bilan birga paleolit davrini o‘rganish sohasidagi izlanishlarini ham davom ettirdi. XX asrning 70-yillari boshida olim M.D.Djuraqulov bilan Samarqand manzilgohida qisqa muddatli tadqiqotlar olib bordi²⁵. Keyingi tadqiqotlar ham Zarafshon vohasi bilan bog‘liq holda amalga oshirildi. Zarafshon vohasi paleolit davri yodgorliklari tadqiqotlariga bag‘ishlangan N.X.Toshkenbayev bilan hammualliflikda chop etilgan monografiyasi bunga yaqqol misoldir²⁶. Mazkur monografiya mutaxassislarning mintaqa va O‘rta Osiyo paleoliti haqidagi bilimlarini sezilarli darajada to‘ldirdi.

1998-yilda R.X.Suleymanov Rossiya Fanlar akademiyasining Sibir bo‘limi bilan Obirahmat yodgorligida tadqiqot ishlarini qayta boshlaydi. Ushbu hamkorlik doirasida

²⁴ Исамиддинов М. Знатоки первобытной и античной археологии Центральной Азии // История и археология Турана. – Ташкент, 2020. – №5. – С. 12.

²⁵ Джуракулов М.Д., Сулейманов Р.Х. Новые находки останков первобытного человека на Самаркандской верхнепалеолитической стоянке / История материальной культуры Узбекистана. – Ташкент, 1973. – С. 21–25.

²⁶ Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. – Ташкент, 1980. – С. 97.

olim ishtirokida olib borilgan tadqiqot natijalarida 10 ga yaqin ilmiy maqolalar nashr etilgan²⁷. Ushbu ilmiy maqolalarda asosan olimning, antropogenez, paleolit davri madaniyatlari va odamlarining ming yilliklar davomidagi Oʻrta Osiyo hamda undan boshqa kengliklarga koʻchish harakatlari muammosi tahlil qilingan.

2000-yillar boshlarida Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi Angillak va Qorakamar gʻor makonlari oʻrganila boshlandi. Chunki, Angillak gʻori arxeologik jihatdan oʻrganish uchun ancha istiqbolli loyiha boʻlib, uni tizimli tadqiq ishlari 2002–2004-yillarda dastlab xalqaro Oʻzbek-Amerika, keyinchalik 2013–2014-yillarda Oʻzbek-Yapon qoʻshma ekspeditsiyalari tomonidan olib borildi. Olingan natijalar qator ilmiy maqolalar va yillik hisobotlarda oʻz aksini topdi²⁸.

Oʻzbek-yapon ekspeditsiyasining 2015–2019-yillarda olib borgan keyingi tadqiqotlari davomida R.X.Suleymanov tomonidan Surxondaryo viloyati Boysun tumanida joylashgan Qaynarkamar yodgorligi ham tadqiq etildi. Natijada, ushbu yodgorlikda amalga oshirilgan ishlar Oʻzbekiston hududida mezolit va neolit davrlari tarixiga yangicha qarash zarurligini koʻrsatdi. Yodgorlikni oʻrganish jarayonida bir qator yangi tabiiy fan tadqiqot usullari qoʻllanilgan boʻlib, bu dastlabki ishlab chiqarish xoʻjalik shakllarining paydo boʻlishi va rivojlanishi haqida xulosalar chiqarish imkonini bergan²⁹.

Rustam Xamidovich Suleymanov tadqiqotlari nafaqat Ozbekiston, shu bilan birga qoʻshni davlatlarda ham olib borilganligini koʻrish mumkin. Olim 1978–1979-yillarda Afgʻonistonning Jauzjon viloyatida Sovet-Afgʻon ekspeditsiyasida dunyoga mashhur Tillatepa yodgorligi³⁰, 2002–2007-yillarda Qozogʻistonning Sayram, Burguluk, Xonqoʻrgʻon va Janubiy Qozogʻiston hududlarida tashkil etilgan ekspeditsiyalarda ishtirok etgan³¹. Tadqiqotchi tomonidan soʻnggi yillarda yana bir qator yangi paleolit davri yodgorliklari tadqiq etilmoqda. Ohangaron vohasida oʻrta paleolit davriga tegishli boʻlgan Muzbel yodgorligi hamda Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan Xatak gʻor-makonlari shular jumlasidandir³².

²⁷ Деревянко А. П., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сулейманов Р.Х., Кривошапкин А.И., Алимов К., Крахмаль К.А., Феденева И.Н., Зенин А.Н., Анойкин А.А. Исследования грота Оби-Рахмат (Республика Узбекистан) в 1998 г. / Проблемы археологии, этнографии, антропологии Сибири и сопредельных территорий. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 1998. – С. 37–45; Деревянко А.П., Кривошапкин А.И., Анойкин А.А., Исламов У.И., Петрин В.Т., Сайфуллаев Б.К., Сулейманов Р.Х. Ранний верхний палеолит Узбекистана: индустрия грота Оби-Рахмат (по материалам слоев 2–14) / Переход от среднего к позднему палеолиту в Евразии: гипотезы и факты. – Новосибирск: ИАЭТ СО РАН, 2005. – С. 446–467; Glantz M., Viola B., Wrinn P., Chikisheva T., Derevianko A., Krivoshepa A., Islamov U., Suleimanov R., Ritzman T. New hominin remains from Uzbekistan // Journal of Human Evolution. – 2008. – Vol. 55. – P. 223–237.

²⁸ Сулейманов Р., Гланц М., Пасилов Б., Ражабова Н., Паин Л., Адамс Дж., Ритцман Т. Отчет о полевых исследованиях совместной Узбекско-Американской археологической экспедиции в 2003 году. Раскопки грота Ангиллак. – Ташкент, Научный архив ИА АН РУз. Фонд 03.01. – №128. – С. 2–19.; Сулейманов Р., Гланц М. Раскопки грота Ангиллак // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. – Тошкент, 2003. – № 4. – С. 177–179.

²⁹ Nishiaki Yoshihiro, Aripdjanov Otabek, Arai Saiji, Akashi Chie, Nakata Hiroto, Sayfullayev Bakhtiyor, Ergashev Odil, Suleimanov Rustam. Neolithization during the 6th millennium BCE in western Central Asia: New evidence from Kaynar Kamar Rockshelter, Hissar Mountains, Southeast Uzbekistan // Archaeological Research in Asia 30 2022

³⁰ Академик Сагдуллаев А. С. Илму фанга бахшида умр // 85 йиллик юбилейга бағишланган тўплам. – Тошкент, 2024. – Б. 42–43; Древняя Бактрия / Материалы Советско-афганской археологической экспедиции. – Москва, 1979. – С. 6, 63.

³¹ Байтанаев Б.А., Сулейманов Р.Х., Авизова А.К., Сулейманова Ж.Ж., Ергешбаев А.А. Археологические исследования на городище Шымкент / Древняя и средневековая урбанизация Евразии и возраст города Шымкент. Материалы Международной научно-практической конференции. – Шымкент, 2008. – С. 38–43; Байпаков К.М., Байтанаев Б.А., Сулейманов Р.Х., Грищенко А.Н. Стратиграфия городища Шымкент: возникновение и развитие города / Древняя и средневековая урбанизация Евразии и возраст города Шымкент. Материалы Международной научно-практической конференции. – Шымкент, 2008. – С. 19–30.

³² Сулейманов Р. Х., Мухаммадиев А.Г., Ойназаров Х. Г. Среднепалеолитическая стоянка Хатак на юге Узбекистана // Вестник МИЦАИ. – Ташкент, 2022. – №34. – С. 16–22; Сулейманов Р.Х., Мухаммадиев А.Г. Новые

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“R.X.Suleymanovning g‘arbiy va janubiy So‘g‘d hududlarida olib borgan tadqiqotlari”** deb nomlanib, uning birinchi paragrafida olimning “Buxoro vohasida olib borilgan tadqiqotlar va Setalak–1 yodgorligining ahamiyati (1970–1975-yillar)”ga doir tadqiqotlari natijalari yoritilgan.

XX asrning 70-yillarida R.X.Suleymanov O‘zbekiston va O‘rta Osiyo paleolit davri moddiy madaniyati xususiyatlari, davrlashtirish hamda ibtidoiy jamiyat tarixi muammolari yuzasidan bir qator fikrlarni ilgari surib, ularni ancha ilg‘or usullar orqali ilmiy asoslab berdi. Izlanishlar jarayonida olim tomonidan qo‘llanilgan zamonaviy tadqiqot usullari, samarador tahlil va natija, teran mantiqqa asoslangan yondashuv hamda qarashlar, asosli ilmiy xulosalar, to‘plangan tajriba va ko‘nikmalar uning salohiyatini boshqa davrlar tarixi hamda arxeologiyasi sohasidagi mavjud muammolar yechimini topishda ham foydalanish zaruratini ko‘rsatdi. Ushbu zarurat tufayli R.X.Suleymanov paleolit davrini o‘rganish bilan birga qadimgi So‘g‘dning muhim viloyatlaridan biri bo‘lgan Buxoro vohasi antik davri tarixini o‘rganishga kirishgan. Rustam Xamidovich Suleymanovning aynan Buxoro vohasini tadqiq etishga kirishishiga uning ilmiy faoliyatining ilk yillarida Ya.G‘.G‘ulomov boshchiligidagi Mohandaryo ekspeditsiyasida faoliyat olib borganligi ham sabab bo‘lgan. Jumladan, 1963–1964-yillarda Mohandaryo ekspeditsiyasi tarkibida olim ilmiy xodim sifatida arxeologik tadqiqotlarda ishtirok etdi³³.

1972-yilda Buxoro vohasida qadimgi So‘g‘d madaniyatining shakllanishi hamda o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadida faoliyat olib borayotgan R.X.Suleymanov boshchiligidagi O‘zbekiston SSR FA Arxeologiya instituti Zarafshon ekspeditsiyasi ilk temir va antik davr yodgorliklarini qidirib topish hamda o‘rganishni boshladi va asosiy tadqiqot obyekti sifatida Setalak yodgorligi tanlandi. Setalak yodgorligini o‘rganish Mohandaryo ekspeditsiyasi faoliyati natijasida qo‘lga kiritilgan ilmiy xulosalarni yanada to‘ldirish hamda Buxoro vohasining shimoli-g‘arbiy qismida antik davr madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi³⁴.

Shu o‘rinda R.X.Suleymanovning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatida uning zimmasiga yuklangan vazifa ma‘suliyatini alohida ta‘kidlash kerak. Setalak-Qizilqir kompleksi tarkibidagi yodgorliklar ham Obirahmat yodgorligi kabi keng ilmiy jamoatchilikka R.X.Suleymanov tomonidan ma‘lum qilindi. Arxeologik izlanishlar natijalari yillik hisobotlar va hammualliflikda chop etilgan “Buxoro vohasining milodiy III – VI asrlar madaniyati” nomli monografiyasida e‘lon qilindi³⁵. O‘rganilgan yodgorliklar sopol buyumlari asosida nafaqat moddiy madaniyat va uning rivoji borasida, shu bilan birga boshqa mintaqalar bilan mavjud madaniy aloqalari haqida ham ma‘lumotlar olindi. Ularga ko‘ra, voha sopol buyumlari Toshkent vohasi, Sirdaryo o‘rta oqimlarida keng yoyilgan Qovunchi madaniyati sopol buyumlari bilan bir qator o‘xshashliklarga ega ekanligi qayd etildi. Kulolchilikdagi bu kabi holat Samarqand So‘g‘dida Afrosiyobda uchrashi, Qovunchi madaniyatining Qashqadaryo vohasi yodgorliklaridagi sopol ishlab chiqarishga ta‘siri esa milodiy III – V asrlarda paydo bo‘lishini ta‘kidlaydi. Ushbu kuzatishlar nafaqat Buxoro, shu bilan birga Qashqadaryo vohasigacha cho‘zilgan katta

среднепалеолитические памятники Узбекистана / Новейшие открытия в палеолите Евразии, Материалы международного симпозиума, посвященного к юбилею академика Деревянко А. П. 2023. – С. 68–70.

³³ O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yahyo G‘ulomov nomidagi Arxeologiya instituti arxivi (keyingi o‘rinlarda – O‘z R FA YG‘NAI JA). 3-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 39-yig‘majild, 1-varaq.

³⁴ O‘z R FA YG‘NAI JA. 2-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 46-yig‘majild, 13–14-varaqlar.

³⁵ Мухамеджанов А., Сулейманов Р., Ураков Б. Культура древнебухарская оазиса III–VI вв.н.э. – Ташкент, 1983. – 125 с.

hududdagi ijtimoiy-madaniy aloqalar mavjudligini ko'rsatib beruvchi asosli ilmiy xulosalar edi. XX asrning 70–80-yillarida O'rta Osiyoning voha hududlarida vujudga kelgan madaniyatlarning xususiyatlari, ularning xronologiyasi va davrlashtirishi masalalari aniqlanmagan edi. R.X.Suleymanov Buxoro vohasi sopol buyumlarini o'rganish, ularning tipologiyasini ishlab chiqish hamda shu asosida voha tarixini davrlashtirish tizimini yaratish ahamiyatini yaxshi tushungan. Bu esa R.X.Suleymanovga Qadimgi So'g'dning ikkita yirik vohasi – Buxoro va Qarshining tarixiy-madaniy taraqqiyoti bo'yicha aniq hamda to'g'ri ma'lumotlarni olish imkonini berdi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi “Naxshab-Qarshi vohasida R.X.Suleymanov tomonidan tashkil etilgan O'zbekiston SSR FA arxeologiya ekspeditsiyasining 1973–1990-yillarda olib borgan faoliyati natijalari”ga bag'ishlangan. Ushbu paragraf ikki qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchi “Qashqadaryoning quyi oqimi mintaqalari arxeologik xaritasining tuzilishi” deb nomlangan.

XX asrning 70-yillaridan O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida bo'lgani kabi Qashqadaryo vohasini arxeologik o'rganish ishlari ham keng ko'lamda rivojlana boshlandi. Amalga oshirilishi rejalashtirilgan arxeologik tadqiqotlar sug'orish tizimlarining barpo etish va yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadidan kelib chiqib belgilab berildi. Asosiy e'tibor yangi o'zlashtiriladigan hududlarda joylashgan va yo'qolib ketish xavfi mavjud bo'lgan yodgorliklarni o'rganishga qaratilgan edi. Ushbu holat arxeolog olimlar zimmasiga yuklangan vazifa mas'uliyatini yanada oshirgan. Amalga oshirilayotgan ishlarda vohani o'zlashtirish dinamikasi va u bilan bog'liq holda qadimgi sug'orish tizimlari izlarini o'rganishda muhim bo'lib, qo'lga kiritilgan natijalar zamonaviy sug'orish inshootlarini barpo etishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

XX asrning 70-yillaridan boshlab O'zbekiston SSR FA arxeologiya institutining tashkil etilishi bilan Qashqadaryo vohasini o'rganilish jarayoni ham yangi bosqichga ko'tarildi. 1973-yildan hududdagi arxeologik izlanishlarga R.X.Suleymanov boshchilik qiladi. Dastlabki dala qidiruv ishlari 1973–1974-yillarda Qarshi bosh magistrat kanalini barpo etilishi bilan bog'liq edi. Ushbu dala qidiruv ishlari nisbatan ancha keng ko'lamli bo'lib, birgina 1973-yildagi tadqiqotlarning o'zi apreldan noyabr oyigacha bo'lgan vaqt davomida to'qqiz oy muddatda olib borilgan edi. Ushbu ekspeditsiya ko'lami, tarkib va amalga oshirilgan ishlar natijasiga ko'ra Respublikada mazkur davrda faoliyat olib borgan arxeologik ekspeditsiyalar ichida eng yiriklaridan biri edi³⁶.

Bu kabi yirik ekspeditsiya faoliyatini yo'lga qo'yish hamda belgilangan vazifalarni amalga oshirish ekspeditsiya rahbaridan yuksak tashkilotchilik va boshqaruvchilik salohiyatini talab qilgan. Rustam Xamidovich Suleymanov ekspeditsiya rahbari sifatida zimmasidagi ushbu vazifalarning barchasini uddaladi. Ilmiy izlanishlarda qatnashgan yosh ilmiy xodimlardan ko'pchiligi keyinchalik o'z sohasining yetuk mutaxassislari bo'lib yetishdi.

Dala-qidiruv ishlari natijasida 1973-yilda 200 ga yaqin turli davrlarga oid yodgorliklar aniqlanib, ro'yxatga olindi³⁷. Topib ro'yxatga olingan yodgorliklarning ko'pchiligi avval o'rganilmagan edi³⁸. Ekspeditsiya 1974-yilda ham dala qidiruv ishlarini davom ettirdi. Dala qidiruv ishlari asosan Qarshi shahri atrofi, vohaning shimoliy qismi Koson-Po'lati hududlarida olib borildi. Natijada, yana 83 ta arxeologik yodgorliklar

³⁶ O'z R FA YG'NAI JA, 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 38-yig'majild, 8-varaq.

³⁷ O'z R FA YG'NAI JA, 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 39-yig'majild, 1-varaq.

³⁸ O'z R FA YG'NAI JA, 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 38-yig'majild, 5-9-varaqlar.

ro'yhatga olindi. Ekspeditsiyaning ikki yillik faoliyati natijasida jami 283 ta yodgorliklar aniqlanib, xaritalashtirildi.

R.X.Suleymanov tomonidan amalga oshirilgan dala-qidiruv ishlari davomida yodgorliklarni qayd etishning alohida metodlari qo'llanilgan. Unga ko'ra, yodgorlikning to'liq arxeologik tavsifi berilib, ularning tarixiy-topografiyasiga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Aniqlangan yodgorliklar o'rni xaritada belgilanib, yer yuzasidagi topilmalar asosida davriy mansubligiga oid dastlabki ilmiy xulosalar berilgan.

Vohadagi keyingi dala-qidiruv ishlari XX asrning 80-yillarida Qashqadaryoda Toshloqsoy, Qizilsuv, Oyoqchisoy suv omborlari va Dehqonobod sel suvlarini saqlashga mo'ljallangan inshootlarning barpo etilishi bilan bog'liq edi. 1984-yildan Qarshi vohasining Sandiqli cho'li sharqiy qismini arxeologik tadqiq etish ishlari boshlandi. Dala-qidiruv ishlari Quyi Qashqadaryo Bosh kanalining barpo etilishi bilan bog'liq bo'lgan.

Qashqadaryo arxeologik ekspeditsiyasining mazkur yillarda olib borgan dala-qidiruv ishlari keyinchalik R.X.Suleymanovga voha yodgorliklarini joylashuvi va o'zlashtirilish bosqichlari hamda yodgorliklarni tasnifi borasida ilmiy xulosalar chiqarishi uchun asos bo'lib xizmat qildi³⁹. Ushbu hududda jami 600 tadan ko'proq yodgorlik aniqlangan bo'lib, ular mil.av. VIII asrdan so'nggi o'rta asrlar oxirigacha va undan keyingi davrlar bilan chegaralangan. Ulardan 400 dan oshig'i Qarshi, 104 tasi G'uzor vohalari, 34 tasi esa G'uzordaryo havzasining tog'li hududlarida aniqlangan⁴⁰. Tadqiqotchining amalga oshirgan ishlari keyinchalik vohadagi barcha yodgorliklarni tuzilishi va shakli bo'yicha tasniflanib, ularning tuzilishiga ko'ra, uchta guruhi hamda shakliga 11 ta tipi ajratildi⁴¹.

Mazkur paragrafning "Yerqo'rg'on va Qarshi shahrida olib borilgan tadqiqotlar" deb nomlangan ikkinchi qismi R.X.Suleymanov tomonidan vohaning poytaxt shaharlarda olib borgan tadqiqotlariga bag'ishlangan. Voha shaharsozlik hamda urbanizatsiya masalalarini o'rganish qadimgi So'g'd tarixi va madaniyatini o'rganish bilan uzviy bog'liq holda alohida ahamiyatga ega edi. Samarqand va Buxoro So'g'didan farqli ravishda Qarshi vohasi So'g'd shaharsozlik madaniyatining ilk ko'rinishlari, shakllanish bosqichlari hamda taraqqiyotini o'zida jamlagani va butun mahobatini saqlab qolgani uchun ham muhim edi. Uni arxeologik jihatdan o'rganish hamda tarixan qayta tiklash "Ilk temir davri"dan to "Ilk o'rta asrlar davri" va undan keyingi davrlargacha bo'lgan shaharsozlik hamda urbanizatsiya jarayonlari haqida xulosalar chiqarish imkonini berar edi.

R.X.Suleymanov vohaning poytaxt shaharlari sanalgan Yerqo'rg'on, Qal'ai-Zahoki-Moron va Shulluktepa yodgorliklarini o'rganishga kirishishning dastlabki davridanoq ushbu vazifalarni aniq-ravshan anglagan edi. Tarkib jihatdan yirik ekspeditsiyalardan biri bo'lgan ushbu ekspeditsiya yirik arxeologik yodgorliklarda mudofaa tizimini, saroy, ibodatxona va boshqa shu kabi monumental jamoat inshootlarini hamda aholi turar joylarini ham qurilish-arxitekturaviy jihatdan o'rganishni maqsad qilgan. Shu bilan birga, san'at va hunarmandchilikka oid, turli davriy chegara doirasidagi keng ko'lamli hamda ko'p sonli topilmalarni ilmiy tavsifi va tasnifini amalga

³⁹ Сулеймонов Р.Х. Древний Нахшаб (проблемы цивилизации Узбекистана VII в. до н. э. – VII в. н.э.) – Ташкент, 2000. – С. 22.

⁴⁰ Yuqoridagi asar... – С. 23.

⁴¹ Yuqoridagi asar... – С. 23–24.

oshirish kerak edi. Aynan ushbu vazifa R.X.Suleymanovning ekspeditsiya rahbari sifatida zimmasiga yuklangan eng muhim topshiriqlardan biri edi.

1973-yilda Yerqo'rg'on yodgorlik hududida 6 ta qazish maydonida tadqiqot ishlari yo'lga qo'yiladi⁴². Yerqo'rg'on yodgorligida qisqa vaqt davomida olib borilgan tadqiqotlar ham muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini bergan. Qazish ishlari davomida qo'lga kiritilgan topilmalar asosida Yerqo'rg'onni shahar manzilgoh sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari haqida asosli fikrlar ilgari surildi⁴³.

Yerqo'rg'on hududida olib borilgan tadqiqot ishlarining ko'lami yildan-yilga kengayib bordi. Natijada, 1984-yilda yodgorlik hududida qazuv maydonlari soni umumiy hisobda 21 taga yetadi. Ushbu qazuv maydonlarining ko'pchiligi madaniy qatlamlar holatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, planigrafik xususiyatga ega bo'lgan qazish ishlari № 16 (metallozlar mavzesi) va № 13 (kulollar mavzesi) qazuv maydonlarida olib borilgan. Kulollar mavzesida 1982–1983-yillarda olib borilgan izlanishlar natijasida 40 ga yaqin xonalar ochib o'rganilgan bo'lib, ular alohida xo'jalik tarmog'i sifatida guruhlariga ajraladi⁴⁴.

1995-yilga kelganda Yerqo'rg'ondagi qazish ishlari ko'lami avvalgi yillarga qaraganda ancha kamaygan edi. Tadqiqot ishlari asosan uchta qazuv maydonida olib borilgan. Ular 1981-yilda o'rganila boshlangan № 17a qazuv maydoni, № 11 qazuv maydon hamda dahmaning g'arbiy qismidan iborat edi. № 11 qazuv maydonida amalga oshirilgan ishlar kichik ko'lamda bo'lib, asosiy ishlar qolgan ikkita joyda amalga oshirildi⁴⁵.

Umuman olganda, Qarshi vohasi, Yerqo'rg'on va boshqa yodgorliklarda amalga oshirilgan ekspeditsiya faoliyati natijasida ushbu yirik qadimiy vohaning madaniy tarixini o'rganish uchun juda katta materiallar to'plandi. Monumental jamoat inshootlarini o'rganish natijasida O'rta Osiyoning qadimiy me'morchiligini tavsiflovchi ko'plab qiziqarli materiallar, me'morchilik ana'nalari mahalliy va ellinistik ta'sir xususiyatlari aniqlandi. Ushbu materiallar R.X.Suleymanovga So'g'd me'morchiligida mahalliy va ellinizmning ta'sirini aniqlashtirish va o'sha davrdagi qurilish inshootlarini rivojlanishida mahalliy ana'nalarning o'rnini baholashida qo'l keldi. Yerqo'rg'onning qadimiy qurilish texnikasi va monumental me'morchilik inshootlarini chuqur tahlil qilish natijasida u qadimgi Qarshi vohasi shaharsozligi hamda me'morchiligi asosida O'rta Osiyo hududlarida qadimiy mahalliy qurilish ana'nalari keng yoyilganligini aytib o'tadi. Monumental me'morchilik inshootlarida mahalliy va qadimgi sharq me'morchilik ana'nalari ta'siri juda keng ko'lamda mintaqalararo taqqoslanib qiyosiy tahlil qilindi⁴⁶.

Xullas, Qashqadaryo vohasida R.X.Suleymanov boshchiligida olib borilgan qazishma ishlari natijasida ko'plab masalalarga aniqlik kiritilgan. 1973-yildan XX asrning 90-yillari boshiga qadar o'tkazilgan arxeologik tadqiqot ishlari bir qator jihatlari bilan ajralib turar edi. Birinchi navbatda, tadqiqot ishlari keng ko'lamli bo'lib, qadimgi So'g'd vohasi shaharsozligi va urbanizatsiya jarayonlarini to'liq ochib berishga xizmat qildi. Shaharsozlik masalalari qurilish-arxitektura tuzilishi masalalari bilan birga ularning genezisi va o'ziga xos xususiyatlarini ham ochib berdi. Ushbu holat hukmron qatlam va jamoat inshootlariga oid mahobatli binolar bilan birga, hunarmandchilik ishlab chiqarishi hamda aholi turar-joylariga ham birdek tegishli edi.

⁴² O'z R FA YG'NAI JA. 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 38-yig'majild, 93-varaq.

⁴³ O'z R FA YG'NAI JA. 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 39-yig'majild, 138–139-varaqlar.

⁴⁴ O'z R FA YG'NAI JA. 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 99-yig'majild, 3-varaq.

⁴⁵ O'z R FAYG'NAI JA. 3-jamg'arma, 1-ro'yxat, 107-yig'majild, 1-varaq.

⁴⁶ Сулейманов Р. X. Древний Нахшеб... – С. 88–159.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“R.X.Suleymanov tadqiqotlarida O‘rta Osiyo tarixi muammolarining yoritilishi”** deb nomlangan. Ushbu bob ikki paragrafdan iborat bo‘lib, ular mos ravishda **“R.X.Suleymanov tadqiqotlarida tosh davri tarixi muammolarining yoritilishi”** va **“R.X.Suleymanov tadqiqotlarida qadimgi davr tarixi muammolarining yoritilishi”** deb nomlangan. R.X.Suleymanovning ilmiy faoliyati O‘zbekiston va O‘rta Osiyo tarixi hamda arxeologiyasining turli davr, yo‘nalish va muammolarini o‘rganishga qaratilgan. Olim doim tarix va arxeologiya sohasidagi mavjud muammolar yuzasidan o‘z ilmiy fikr-mulohazalarini bildirgan. Arxeologiyada qazish va topilmalarni tasniflash metodlaridan tortib, yodgorliklarni konservatsiya qilish hamda saqlash masalalarigacha turli yillarda olimning ilmiy faoliyatining asosiy yo‘nalishini tashkil etib kelgan. Arxeologiya sohasida u o‘z tadqiqot usullarini yaratdi hamda ularni bevosita amaliyotda qo‘llash orqali qo‘lga kiritgan natijalari asosida o‘z qarashlari va yondashuvlarini asoslab berdi.

Rustam Xamidovich Suleymanov tosh davri muammolarini o‘rganishga kirishgan XX asrning 60-yillarida tosh davri arxeologiyasiga oid ko‘plab yodgorliklar aniqlangan va ularning u yoki bu darajada tavsifi berilgan bo‘lsa-da, hali ko‘plab muammolar o‘z yechimini kutayotgan edi. Muammolar qamrovi shu darajada ediki, bevosita yodgorliklar davriy, ijtimoiy-madaniy mansubligi masalalaridan tashqari topilgan topilmalarni tadqiq etishning metodologik asoslarini yaratish ham ancha orqada qolmoqda edi. Xuddi shunday murakkab bir davrda R.X.Suleymanov Obirahmat yodgorligi topilmalari asosida nafaqat O‘zbekiston, balki butun O‘rta Osiyo o‘rta paleolit davri yodgorliklarining davriy-madaniy mansublik va rivojlanish bosqichlari muammolari borasida ilmiy xulosalarini bildirdi. Shu bilan birga tosh artefaktlarni tasniflash bo‘yicha yangi metodik yondashuvni ham taklif qildi.

Tosh artefaktlar kolleksiyalarini tipologik va matematik-statistik o‘rganishga qaratilgan konseptual yondashuv, yodgorliklarni madaniy mansubligiga ko‘ra guruhlariga ajratishda tanlangan asosiy mezonlar paleolit davri yodgorliklarini tasniflash, ibtidoiy jamoa davri xususiyatlari va xo‘jalik-madaniy tiplar o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalariga bag‘ishlangan asosli ilmiy xulosalarni bildirish imkonini berdi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab tipologik, texnologik, eksperimental va funksional trassologiya kabi an‘anaviy tadqiqot yo‘nalishlari rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarildi. Bu o‘zgarishlarda R.X.Suleymanovning Obirahmat yodgorligi topilmalarini o‘rganish jarayonida qo‘llagan tadqiqot usullari va ilgari surgan ilmiy xulosalarining alohida o‘rni bor. Industriyalarning texnologik tahlili qadimgi inson tomonidan tosh qurollar ishlab chiqarish jarayonini qayta tiklash imkonini beradi. Bu kabi ilmiy izlanishlarning metodologik asoslarini yaratishga qaratilgan ilmiy ishlar orasida R.X.Suleymanovning yondashuvini alohida ta’kidlash zarur. Ushbu tadqiqot ishida chaqmoqlash texnikasining ketma-ketligi masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Bunday yondashuv nukleus hamda ulardan olingan mahsulotlarning belgi hamda metrik xususiyatlarini tahlil qilish orqali amalga oshirildi.

R.X.Suleymanovning chaqmoqlash texnologiyasini tahlil qilish uslubi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Chaqmoqlash jarayoni ketma-ketligini o‘rganish ishlab chiqarish jarayoni to‘g‘risida xulosa chiqarishning vositasi sifatida qaraladi hamda statistik tahlil orqali ma’lumotlar mustahkamlanadi. Ushbu yondashuv keyinchalik texnologik tadqiqot usullarini ishlab chiqishga katta ta’sir ko‘rsatdi⁴⁷.

⁴⁷ Сулейманов Р.Х. Характер развития одной из локальных ветвей эволюции каменной индустрии / История материальной культуры Узбекистана. Вып. 7. – Ташкент, 1966. – С. 19–27; O‘sha muallif: Об одном техническом

R.X.Suleymanov birinchi bo'lib ulardagi texnik chiqindilarga e'tibor qaratdi. Shu bilan birga chaqmoqlash jarayonida buyumlar shaklining o'zgarib borish ketma-ketligini ham tahlil qildi. Har ikkala xulosa chaqmoqlash texnikasi va uning xususiyatlarini tushunish imkonini berdi. Natijada, tipologik metod doirasida tasniflanmay qolgan kolleksiya tarkibidagi ko'plab artefaktlar o'zining ilmiy tavsifini topdi. Bunda ma'lum turdagi artefaktlar nukleuslarni chaqmoqlashdagi texnik jarayonlar mahsuli ekanligi aniq belgilab berildi⁴⁸.

O'z vaqtida toshga ishlov berish jarayonini bir butunlikda tushunish zaruratini aniq kolleksiya misolida ko'rsatib bergan R.X.Suleymanovning fikrlari keyingi tadqiqotchilar tomonidan ham e'tirof etildi. Olimning fikricha, chaqmoqlash texnikasi alohida tizim sifatida qaralishi kerak. Bunda tayyorlash, chaqmoqlash va foydalanish jarayonlaridan iborat texnologik bosqichlarni o'zaro bog'liqlik va bir butunlikda o'rganish zarur. Shu bilan birga, olim tomonidan qo'llanilgan tahlil usuli chaqmoqlash jarayonining bir necha bosqichlari haqida ham aniq xulosalar chiqarish imkonini berar edi. R.X.Suleymanov tomonidan amalga oshirilgan tahlil ungacha qo'llanilgan tipologik va statistik metodlardan farq qilgan. Olim tomonidan qo'llanilgan tipologik tahlil ko'proq buyumlarni ishlab chiqarish va ularga ishlov berishdagi texnologik belgi-xususiyatlariga e'tibor qaratish zaruratini keltirib chiqarar edi. Statistik tahlil ham aynan shu belgi-xususiyatlarni yoki aynan shu belgi-xususiyatlarga ko'ra ajratilgan tiplarni miqdoriy tahliliga tayangan⁴⁹.

Keyingi yillarda olib borilgan paleolit davrini o'rganish borasidagi tadqiqotlarda R.X.Suleymanov antropogenez jarayoni masalasi va qadimgi gominidlarining migratsiyasi⁵⁰, paleoekologiya, tabiiy muhit va inson o'rtasidagi bog'liqlik⁵¹

приёме изготовления палеолитических орудий // Общественные науки в Узбекистане. 1966. – № 3. – С. 36–38; O'sha muallif: О нуклеусах из пещерной стоянки Оби-Рахмат Краткие сообщения Института археологии. Вып. 114. – Москва, 1968. – С. 124–131; O'sha muallif: История грота Оби-Рахмат и его значение для палеолита Средней Азии // Бюллетень комиссии по изучению четвертичного периода. – № 35. – Москва, 1968. – С. 84–96; Сулейманов Р.Х., Мирсагаев Т. М. О зарождении верхнего палеолита, в Узбекистане / Проблемы археологии Средней Азии. – Ленинград, 1968; O'sha mualliflar: О показателе как критерии отличия нижнепалеолитической техники расщепления камня от верхнепалеолитической // ИМКУ. Вып. 8. – Ташкент, 1969. – С. 16–21.

⁴⁸ Сулейманов Р.Х. Статистическое изучение грота Обирахмат. – Ташкент, 1972. – С. 77, 85, 88, 96.

⁴⁹ Сулейманов Р.Х. Характер развития одной из локальных ветвей эволюции каменной индустрии... – С. 19–27; O'sha muallif: Об одном техническом приёме изготовления палеолитических орудий // Общественные науки в Узбекистане. – 1966. – № 3 – С. 36–38.; O'sha muallif: О нуклеусах из пещерной стоянки Оби-Рахмат / Краткие сообщения Института археологии. – Москва, 1968. – С. 124–131; O'sha muallif: История грота Оби-Рахмат и его значение для палеолита Средней Азии / Бюллетень комиссии по изучению четвертичного периода. – Москва, 1968. – С. 84–96; Сулейманов Р.Х., Мирсагаев Т.М. О зарождении верхнего палеолита в Узбекистане / Проблемы археологии Средней Азии. – Ленинград, 1968; O'sha mualliflar: О показателе как критерии отличия нижнепалеолитической техники расщепления камня от верхнепалеолитической... – С. 16–21; Сулейманов Р.Х. Кремневые орудия из грота Оби-Рахмат // Общественные науки в Узбекистане. – 1967. – № 6. – С. 65–69; O'sha muallif: К методике классификации палеолитических индустрий // ИМКУ. Вып. 11. – Ташкент, 1974. – С. 22–28.

⁵⁰ Сулейманов Р., Глантз М., Шраубер А., Хугес П. Результаты предварительного изучения памятников мустьерского времени в долине Кашкадарьи // Археологические исследования в Узбекистане – 2002 год. – Ташкент, 2003. – С. 179–180.; O'sha muallif: Грот Обирахмат и проблемы антропогенеза / Материалы конференции УзМУ по истории Узбекистана. – Ташкент, 2010; O'sha muallif: Грот Оби-рахмат и актуальные проблемы антропогенеза / Узбекистон тарихининг долзарб муаммолари илмий мақодалар тўплами. – Тошкент, 2012; O'sha muallif: Место Средней Азии в контексте панорамы палеолита Евразии / “Ўзбекистонда археология ва этнология фанларининг тараққиёти ва истиқболлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2012.

⁵¹ Сулейманов Р.Х., Тойчиев Х.А. К изучению взаимосвязи палеоэкологии и динамики палеолитических культур Узбекистана // Археологические исследования в Узбекистане – 2001 год. – Ташкент, 2002. – С. 152–153; Сулейманов Р.Х. Новые данные по абсолютному возрасту четвертичных отложений Узбекистана, полученные методом оптически вызванной люминесценции (OSL) Геология и минеральные ресурсы. – Ташкент, 2005; O'sha muallif: Археология мероси ва фани ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбекистон тарихи. – 2020. – Б. 24–50; O'sha muallif: Ресурсы, обеспечивающие жизнь населения в Центральной Азии в древний период: земля, вода и

muammolariga ham katta e'tibor bera boshladi. Uning etnogenez masalasidagi fikrlari va xulosalari ham ilmiy ishlarida o'z aksini topdi⁵².

Rustam Xamidovich Suleymanovning qadimdan to o'rta asrlargacha bo'lgan O'zbekiston hamda O'rta Osiyo tarixi va arxeologiyasi muammolari borasidagi qarashlari asosini esa Qashqadaryo vohasida olib borilgan izlanishlar xulosalari tashkil etadi. Ushbu ilmiy qarashlar birinchi navbatda vohaning o'zlashtirilishi va aholi manzilgohlarining shakllanish dinamikasiga bag'ishlangan ilmiy xulosalardan iborat edi. Yerqo'rg'on, Qalai-Zahoki-Moron va Shulluktepa kabi poytaxt shaharlarda olib borilgan arxeologik qazish ishlari esa shaharlarning paydo bo'lishi hamda shakllanish bosqichlari tarixini keng ko'lamda yoritish uchun asos bo'ldi. Ushbu ilmiy xulosalar R.X.Suleymanovning ko'plab ilmiy ishlarida o'z aksini topgan⁵³. XX asrning o'rtalarida ham O'rta Osiyo hududlaridagi arxeologik yodgorliklarning (shahar va qishloqlarning) tipologiyasi mukammal darajada ishlab chiqilmagan edi. Rustam Xamidovich Suleymanov birinchilardan bo'lib Qarshi vohasi bo'yicha yodgorliklarning tipologik tasnifini yaratdi.

Rustam Xamidovich Suleymanovning ilm-fandagi xizmatlari davlat miqyosida munosib baholangan. Olim 1985-yilda "Beruniy" nomidagi davlat mukofoti, 1997-yilda "Do'stlik" ordeni, 2002-yilda "Bobur" medali, 2008-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni, 2019-yilda "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni, 2022-yilda "O'zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi" estalik nishoniga, 2023-yilda "Mehnat shuhrati" nishoni bilan taqdirlangan. Bunday e'tiroflardan tashqari ilmiy faoliyati qo'shni Qozog'iston Respublikasining "Qozog'iston ilmiy taraqqiyotiga xizmat qilgani uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. Olim 1995-yildan Germaniyaning Berlin shahridagi Deutsch Archaeological instituti muxbir azosi, SKOPUS xalqaro bazasida indekslanuvchi "Археология Поволжья" hamda "Степи Евразии" (Rossiya) jurnallarining tahririyati a'zosi sanaladi.

земледелие / "Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги масалалари: тарих ва тараққиёт" мавзусидаги Республика илмий семинари материаллари. – Самарқанд–Тошкент, 2016.

⁵² Этнокультурные процессы в Нахшабе в III–VI вв. н.э. // Сборник, посвященный 90-летию Шаниязова К. – Ташкент, 2004; К этнокультурным связям Центральной Азии и Дальнего Востока в древности // Ўрта Осиёнинг қадимги ва ўрта аср шаҳар маданияти аънаналари. Ўзбекистон Миллий университети археология кафедрасининг 70 йиллигига бағишланган илмий анжуманига йўлланган маърузалар тўплами. – Тошкент, 2010; К вопросу о пратюрках / Ўзбек давлатчилиги ва маданияти тарихида Жанубий Ўзбекистоннинг ўрни. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Қарши, 2011; Узбекистан – на перекрестке древних миграций / Ўрта Осиё қадимги ва ўрта аср маданиятларининг ўзаро алоқадорлиги: меросийлик ва инновация. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд, 2019. – С. 9–11; Миграции ранних кочевников на юг Средней Азии (Дахи и массагеты) / Ўрта Осиё археологияси кафедраси: авлодлар изланиши ва кашфиётлари. – Тошкент, 2021. – Б. 14–27.

⁵³ Сулейманов Р.Х. Раскопки городища Еркурган / Археологические открытия 1977 года. – Москва, 1978. – С. 539–540; Сулейманов Р., Исхаков М., Туребеков М., Нефедов Н. Раскопки на городище Еркурган / Археологические открытия 1978 года. – Москва, 1979. – С. 562–563; Сулейманов Р., Исхаков М., Исамиддинов М., Нефедов Н. Раскопки святилища храма городища Ер-Курган // ИМКУ. Вып. 15. – Ташкент, 1979. – С. 49–56; Сулейманов Р., Нефедов Н. Раскопки на городище Еркурган // Археологические открытия 1979 года. – Москва, 1980. – С. 459; Сулейманов Р.Х. Изучение общественно-культурных сооружений городища Еркурган / Археологические открытия 1980 года. – Москва, 1981. – С. 460–461; О'sha muallif: Предварительные результаты раскопок дворца Еркургана // ИМКУ. Вып. 17. – Ташкент, 1982. – С. 47–51; О'sha muallif: Результаты предварительного изучения городища Ромитан // ИМКУ. – Ташкент, 1984. – С. 118–129; Сулейманов Р., Рузанов В. Химико-металлургическая характеристика меди и бронзы из городища Еркурган // ИМКУ. – Ташкент, 1985. – С. 197–204; Сулейманов Р.Х., Хасанов М.Х. Раскопки на городище Еркурган / Археологические открытия 1983 года. – Москва, 1985. – С. 539–540; Нефедов Н. Работы Еркурганского отряда / Археологические открытия 1981 года. – Москва, 1983. – С. 467–468.

XULOSA

O‘zbekistonda ilm-fani taraqqiyotida tarix fanlari doktori, professor Rustam Xamidovich Suleymanovning o‘rni mavzusi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi **xulosalar**ga kelindi

1. R.X.Suleymanov O‘zbekiston arxeologiya fanining yirik namoyandalardan biri bo‘lib, o‘zining keng qamrovli izlanishlari orqali mamlakatda paleolit, neolit va antik davr madaniyatlarini o‘rganishda yangi bosqichni boshlab bergan.

2. R.X.Suleymanov XX asrning 60-yillarida sovet arxeologiyasi tosh davri tadqiqotlarida kuzatilgan turg‘unlikni yengib o‘tib, matematik va statistik tahlil usullarini arxeologiyaga tatbiq etgan birinchi olimlardan bo‘lib, bunday yondashuv Obirahmat g‘orining tosh industriyasini ilmiy tahlil qilishda katta natijalar berdi.

3. R.X.Suleymanov olib borgan tadqiqotlar natijasida Obirahmat, Angillak, Qaynarkamar singari yodgorliklarning xronologiyasi, madaniy bosqichlari va texnologik rivojlanish qonuniyatlari aniq ilmiy asoslab berildi.

4. Olim O‘zbekiston paleolitshunoslik maktabining shakllanishiga bevosita hissa qo‘shib, ushbu sohada mustaqil ilmiy yo‘nalish yaratgan. Uning izlanishlari antropogenez, qadimgi populyasiyalar migratsiyasi va madaniy aloqalar masalalariga yangicha ilmiy qarash olib kirdi.

5. XX asrning 70-yillaridan boshlab olim So‘g‘d hududlari, Buxoro va Qarshi vohalarida arxeologik tadqiqotlar olib borib, ushbu mintaqada qadimgi madaniyatlar shakllanish bosqichlarini aniqladi hamda vohalar arxeologik xaritasini tuzdi.

6. Mazkur yillarda R.X.Suleymanov rahbarligida Qashqadaryo ekspeditsiyasi tashkil etilib, Yerqo‘rg‘on, Qalai-Zahoki-Moron, Shulluktepa kabi shaharlarning tarixiy topografiyasi ilk bor kompleks ravishda o‘rganildi, bu tadqiqotlar So‘g‘d shaharsozlik madaniyati tarixini chuqur ochib berdi.

7. Yerqo‘rg‘on arxeologik majmuasida olib borilgan qazishmalar natijasida ibodatxona, hokim saroyi, hunarmandlar mahallalari va dahmalar tizimli tarzda o‘rganilib, O‘rta Osiyoda shahar hayotining mil. avv. IV – mil. VII asrlardagi bosqichlari aniqlandi.

8. Olimning antik davrga oid ishlari, xususan, shaharlar va manzilgohlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga bag‘ishlangan tadqiqotlari O‘zbekiston tarixshunosligiga yangi manbalar olib kirdi. U qadimiy urbanizatsiya jarayonlarini vohalar iqtisodiy tizimlari bilan bog‘lab tahlil qildi.

9. R.X.Suleymanovning ishlari O‘zbekistonning qadimgi madaniyatlarini mintaqaviy emas, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsion tizimi doirasida o‘rganish zarurligini ko‘rsatdi. Shuningdek, bunday yondashuv o‘z navbatida mintaqaviy arxeologik birliklar konsepsiyasini boyitdi.

10. Olim arxeologiyada mahalliy kadrlar shakllanishida “birinchi qaldirg‘och”lardan bo‘lib, uyg‘un holdagi ilmiy va pedagogik faoliyati davomida o‘zbek arxeologiyasining bir necha avlodini tayyorladi;

11. R.X.Suleymanov Respublika va dunyo hamjamiyatining ko‘plab mukofotlari, nishonlari bilan taqdirlangan bo‘lib, bu uning ilmiy va tashkiliy faoliyati davlat hamda xalqaro miqyosda e‘tirof etilganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, R.X.Suleymanov O‘zbekiston hamda butun O‘rta Osiyo arxeologiyasi tarixida tosh va antik davr muammolarini kompleks tarzda yoritgan,

metodologik yangilik kiritgan, milliy arxeologiya maktabini mustahkamlagan zabardast olim sifatida tarixda munosib o‘rin egallaydi.

Tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Rustam Xamidovich Suleymanovning tosh davriga oid “Статистический изучение грота Обирахмат” va “Древний Нахшаб” fundamental asarlarini rus va ingliz tillariga tarjima qilinib, qayta zamonaviy ko‘rinishda chop etish orqali kamtarin o‘zbek ziyolisining mehnatini dunyoga ko‘rsatish hamda xalqning buyuk olimlarini ilm-fandagi o‘rnini mustaxkamlash;

2. Respublikadagi oliy ta’lim muassasalarida O‘zbekistonning ilm-fan taraqqiyoti sohasida muhim o‘rin tutgan olimlar va tarixiy shaxslar faoliyatini o‘rganish yuzasidan tarixiy biografiya yo‘nalishda maxsus kurs darslar turkumini joriy etish;

3. Vatanimiz tarixini aks ettiruvchi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda tarixshunoslik tadqiqotlari natijalaridan o‘rinli va unumli foydalangan holda fundamental hamda amaliy loyihalar ishlab chiqish;

4. Respublika muzeylarida R.X.Suleymanovning faoliyati va ilmiy maktabi bilan bog‘liq maxsus fond tashkil etish zarur.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ
НАУЧНОГО СОВЕТА ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/31.03.2021.Tar. 05.05. ПРИ
ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МАХМУДОВА АЗИЗАХОН НОСИРОВА

**ВКЛАД РУСТАМА ХАМИДОВИЧА СУЛЕЙМАНОВА В ИЗУЧЕНИЕ
АРХЕОЛОГИИ КАМЕННОГО ВЕКА И ИСТОРИИ МАТЕРИАЛЬНОЙ
КУЛЬТУРЫ АНТИЧНОГО ПЕРИОДА В УЗБЕКИСТАНЕ**

07.00.08 – Историография, источниковедение и методы исторических исследований

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОР ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан за номером В2020.2.PhD/Гаг692.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.
Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.fdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель: Муродова Дурдонахон Хабибуллоевна
кандидат исторических наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты: Хасанов Муталиб
доктор исторических наук, профессор
Рахмонкулова Зумрадхон Бойхурозовна
кандидат исторических наук, профессор

Ведущая организация: Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится «06» 01 2026 г. в 10⁰⁰ часов на заседании разового Научного совета на основе научного совета по присуждению ученых степеней PhD.03/31.03.2021.Гаг.05.05. при Ферганском государственном университете. (Адрес: 150100, город Фергана, улица Мураббийлар, дом 19. Ферганский государственный университет, Факультет истории, 2-этаж, зал совещаний. Тел.: (99873) 244-44-02; факс: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz, Ферганский государственный университет).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за №886). (Адрес: 150100, город Фергана, улица Мураббийлар, дом 19. Здание ИРЦ). Тел.: (99873) 244-44-94).

Автореферат диссертации разослан «24» 12 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 53 от «24» 12 2025 года).



Б.А.Усмонов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

Н.О.Алимова
Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по историческим наукам, доцент

М.Г.Абдуллаев
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях, когда процессы глобализации охватывают практически все регионы современного мира, наблюдается устойчивый рост научных исследований, направленных на выявление и анализ факторов развития науки и научной деятельности. В этом контексте существенно возрастает интерес к изучению деятельности выдающихся учёных и сформированных ими научных школ, внёсших значительный вклад в развитие мировой науки. В частности, исследование деятельности учёных, известных своим высоким научным потенциалом и творческим путём, имеет важное значение с точки зрения осмысления глобального научного наследия и его интеграции в новые парадигмы.

В деятельности многочисленных научных центров, исследовательских институтов и образовательных организаций мира широко изучается история деятельности учёных, внесших значительный вклад в развитие науки. Особенно важную роль в изучении научного наследия выдающихся учёных играют такие учреждения, как Национальный центр научных исследований (Centre National de la Recherche Scientifique, CNRS) во Франции, Университет Киото в Японии, а также Институт археологии Российской академии наук. В настоящее время признание во многих государствах приоритетного внимания к развитию науки и всестороннему изучению деятельности учёных, внесших вклад в её становление, как одного из важных направлений государственной политики, обуславливает необходимость более широкого и исторически ориентированного исследования данной проблемы.

После обретения Узбекистаном независимости было уделено большое внимание изучению истории великих предков, внесших достойный вклад в развитие мировой цивилизации, выдающихся учёных, служивших прогрессу науки, а также их научных школ. Особенно важно, что в настоящее время в Узбекистане проводится широкомасштабная реформа в области науки и её развития, направленная на укрепление системы науки и содействие развитию страны. Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев: «В стране много учёных с высоким потенциалом, признанных на международном уровне. Они должны создавать собственные школы и воспитывать учеников¹». Анализ деятельности таких просветителей, представителей научной элиты и учёных, а также выявление их вклада в развитие науки способствует осознанию достойного места Узбекистана в мировой цивилизации, позволяет молодому поколению глубже понять историю Родины и смотреть в будущее с твёрдой уверенностью. Эти аспекты демонстрируют, что данное исследование посвящено одной из актуальных задач исторической науки.

Данное исследование в определённой степени служит выполнению задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года № ПФ-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», Указе от 6 июля 2022 года № ПФ-165 «Об утверждении Стратегии инновационного

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 13-dekabrda ilm-fan vakillari bilan uchrashuvida so'zlagan nutqi // <https://share.google/2rEwQgubYWayOiN3C>. Дата обращения: 27. 11. 2025 г.

развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы», а также в Распоряжении от 16 января 2018 года №Ф-5181 «О совершенствовании охраны и использования объектов материального культурного и археологического наследия» и соответствующих постановлениях².

Связь исследования по приоритетным направлениям развития науки и технологии республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями азвития науки и технологий Республики, в частности по направлению I – «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Научные исследования и литературу, связанные с деятельностью Р.Х.Сулейманова, можно условно разделить на две группы. К первой группе относятся научные работы, направленные на изучение истории становления и развития археологии в Республике. Вторую группу составляют статьи и тезисы, посвящённые жизни и научной деятельности Р.Х.Сулейманова, написанные его современниками и зарубежными учёными.

К первой группе относятся аналитические статьи и научные работы, посвящённые обобщению исследований по изучению палеолитического периода, проведённых до середины 60-х годов XX века. Кроме того, в рамках этих научных работ палеолитический период был изучен и освещён в нескольких десятках научных статей и монографий³. Кроме того, помимо указанных научных работ, следует особо отметить научную статью и кандидатскую диссертацию, в которых были подведены итоги достижений археологии каменного века до 1965 года. К

